

TALABALARDA KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIKNING GENDER OMILLARI ASOSIDA IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK TAHLILI



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2026-20-366-371>

Umaraliyeva Hilola Fazliddin qizi
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Ijtimoiy fanlar kafedrası stajyor-o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada talabalarda kommunikativ kompetentlik tushunchasi ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan nazariy tahlil qilinadi. Kommunikativ kompetentlik shaxsning ijtimoiy muhitda samarali muloqotga kirishish, guruhiiy munosabatlarda moslashuvchanlik ko‘rsatish va o‘zaro ta’sir jarayonlarini muvaffaqiyatli tashkil etish qobiliyati sifatida talqin etiladi. Maqolada kommunikativ kompetentlikning kognitiv, emotsional va xulq-atvoriiy komponentlari yoritilib, uning talabalar ijtimoiy moslashuvi va guruhiiy faoliyat samaradorligidagi o‘rni asoslab beriladi. Nazariy tahlil natijalari kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish oliy ta’lim tizimida muhim ijtimoiy-psixologik vazifa ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: kommunikativ kompetentlik, ijtimoiy psixologiya, gender omili, talaba shaxsi, guruhiiy o‘zaro ta’sir, muloqot, ijtimoiy moslashuv, kognitiv komponent, emotsional komponent, xulq-atvoriiy komponent.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПОНЯТИЯ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается понятие коммуникативной компетентности у студентов с точки зрения социально-психологического анализа. Коммуникативная компетентность трактуется как способность личности эффективно вступать в коммуникацию в социальной среде, проявлять гибкость в групповых отношениях и успешно организовывать процессы взаимного взаимодействия. В статье освещены когнитивный, эмоциональный и поведенческий компоненты коммуникативной компетентности, обоснована её роль в социальной адаптации студентов и эффективности групповой деятельности. Результаты теоретического анализа показывают, что развитие коммуникативной компетентности является важной социально-психологической задачей в системе высшего образования.

Ключевые слова: коммуникативная компетентность, социальная психология, личность студента, групповое взаимодействие, общение, социальная адаптация, когнитивный компонент, эмоциональный компонент, поведенческий компонент.

SOCIO-PSYCHOLOGICAL ANALYSIS OF THE CONCEPT OF COMMUNICATIVE COMPETENCE IN STUDENTS

ANNOTATION

This article examines the concept of communicative competence in students from a socio-psychological perspective. Communicative competence is understood as an individual's ability to engage effectively in communication within a social environment, demonstrate flexibility in group interactions, and successfully organize mutual interaction processes. The article highlights the cognitive, emotional, and behavioral components of communicative competence and substantiates its role in students' social adaptation and the effectiveness of group activities. The

results of the theoretical analysis indicate that developing communicative competence is an important socio-psychological task in higher education.

Keywords: *communicative competence, social psychology, student personality, group interaction, communication, social adaptation, cognitive component, emotional component, behavioral component.*

KIRISH

Zamonaviy jamiyatda shaxslararo muloqotning murakkablashuvi va ijtimoiy munosabatlarning ko‘p qirrali tus olishi kommunikativ kompetentlik masalasini psixologiya fanining muhim tadqiqot ob‘ektiga aylantirmoqda. Ayniqsa, oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim olayotgan talabalar uchun kommunikativ kompetentlik nafaqat o‘quv jarayonining samaradorligini, balki kelgusidagi kasbiy faoliyat muvaffaqiyatini ham belgilovchi muhim omil hisoblanadi.

Ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan kommunikativ kompetentlik shaxsning ijtimoiy muhitda samarali muloqot o‘rnatish, ijtimoiy rollarni adekvat bajarish va guruhij munosabatlarda moslashuvchanlik ko‘rsatish qobiliyati sifatida talqin etiladi. Talabalik davri shaxsning ijtimoiy yetukligi shakllanadigan muhim bosqich bo‘lgani sababli, aynan shu davrda kommunikativ kompetentlikning rivojlanish mexanizmlarini nazariy jihatdan tahlil qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi.[1.25-29b]

Tahlil jarayonida kommunikativ kompetentlikning ijtimoiy-psixologik mazmuni, uning asosiy komponentlari hamda talaba shaxsining rivojlanish jarayonidagi o‘rni aniqlashtirildi. Nazariy tahlil natijalariga ko‘ra, kommunikativ kompetentlik ko‘p komponentli ijtimoiy-psixologik hodisa bo‘lib, u quyidagi asosiy tarkibiy qismlardan iborat:

1. Kognitiv komponent — muloqot jarayoniga oid bilimlar, ijtimoiy vaziyatlarni tushunish, suhbatdoshning psixologik holatini anglash qobiliyati. Talabalarda ushbu komponentning rivojlanganligi muloqot jarayonining ongli va maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lishini ta‘minlaydi.

2. Emotsional komponent — empatiya, emotsional sezgirlik va hissiy barqarorlikni o‘z ichiga oladi. Bu komponent guruhij munosabatlarda ijobij psixologik muhit shakllanishida muhim rol o‘ynaydi.

3. Xulq-atvoriy komponent — samarali muloqot strategiyalaridan foydalanish, faol tinglash, nizoli vaziyatlarda konstruktiv yechim topish qobiliyatini ifodalaydi . [8.68-75b]

Ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan qaralganda, kommunikativ kompetentlik talabaning guruhdagi mavqei, ijtimoiy moslashuvi va o‘zaro ta‘sir samaradorligini belgilovchi muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Adabiyotlar tahlili.

Hozirgi ijtimoiy-psixologik tadqiqotlarda kommunikativ kompetentlik shaxsning ijtimoiy muhitda samarali muloqot o‘rnatish, o‘z fikrini aniq va tushunarli ifodalash, suhbatdoshni anglash hamda o‘zaro ta‘sir jarayonini boshqara olish qobiliyati sifatida talqin etiladi. Ayniqsa, talabalik davri shaxsning ijtimoiylashuvi, kasbiy va shaxsiy identiteti shakllanishida muhim bosqich bo‘lib, bu davrda kommunikativ kompetentlikning rivojlanishi alohida ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tushuncha ilmiy adabiyotlarda turli nazariy yondashuvlar asosida yoritilgan. Jumladan, G.M. Andreeva kommunikativ kompetentlikni shaxslararo muloqotning kognitiv, emotsional va xulq-atvor komponentlari birligi sifatida izohlaydi. Uning fikricha, samarali muloqot nafaqat axborot almashinuvi, balki ijtimoiy idrok va o‘zaro tushunish jarayonlarini ham o‘z ichiga oladi. Bu yondashuv talabalarda kommunikativ kompetentlikni shakllantirishda ijtimoiy idrok va empatiya muhim omil ekanini ko‘rsatadi.[8.68-75b]

A.A. Bodalevning tadqiqotlarida kommunikativ kompetentlik shaxsning boshqa insonni anglash, uning ichki holatini tushunish va adekvat munosabat bildirish qobiliyati bilan chambarchas bog‘liq holda ko‘rib chiqiladi. Olim kommunikativ kompetentlikni shaxslararo munosabatlarning psixologik mexanizmlarini samarali qo‘llay olish darajasi sifatida talqin qiladi. Bu qarash talabalarda muloqot madaniyatini rivojlantirishda refleksiya va o‘z-o‘zini anglashning ahamiyatini asoslaydi.[9.112-118b]

L.A. Petrovskiy kommunikativ kompetentlikni ijtimoiy kompetentlikning tarkibiy qismi sifatida o‘rganib, uni guruhiiy o‘zaro ta’sir samaradorligini belgilovchi muhim omil deb hisoblaydi. Uning tadqiqotlariga ko‘ra, kommunikativ kompetentlik darajasi yuqori bo‘lgan talabalar guruhda yetakchilikka moyil bo‘lib, nizoli vaziyatlarni konstruktiv hal qilishga qodir bo‘ladilar. Bu esa oliy ta’lim muhitida guruhiiy jarayonlarning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.[10.87-94]

G‘arb psixologiyasida kommunikativ kompetentlik tushunchasi D. Hymes va B. Spitzberg ishlarida keng yoritilgan. D. Hymes kommunikativ kompetentlikni lingvistik bilimlar bilan cheklanmagan holda, ijtimoiy vaziyatga mos muloqot olib borish qobiliyati sifatida ta’riflaydi. B. Spitzberg esa uni muloqot jarayonida moslashuvchanlik, samaradorlik va maqsadlilik mezonlari orqali baholaydi. Ushbu yondashuvlar talabalarining akademik va kasbiy faoliyatida kommunikativ kompetentlikning ahamiyatini ochib beradi.[11.269-272b]

O‘zbekistonlik olimlar tadqiqotlarida ham kommunikativ kompetentlik masalasiga e’tibor qaratilgan. Xususan, Sh.R. Baratov [11.146-150b] va R. Sunnatova ishlarida kommunikativ kompetentlik shaxsning ijtimoiy faolligi, o‘z-o‘zini namoyon etishi va kasbiy tayyorgarligi bilan bog‘liq holda tahlil qilinadi. Mualliflar talabalarda kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirish ta’lim jarayonining muhim vazifalaridan biri ekanini ta’kidlaydilar.[12.98-103b]

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, kommunikativ kompetentlik ko‘p komponentli, murakkab ijtimoiy-psixologik hodisa bo‘lib, u shaxsning muloqotga oid bilimlari, ko‘nikmalari, emotsional sezgirligi va ijtimoiy tajribasini o‘z ichiga oladi. Talabalarda ushbu kompetentlikning rivojlanishi nafaqat ularning o‘quv faoliyatiga, balki kelajakdagi kasbiy muvaffaqiyatiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Muhokama.

O‘rganilgan nazariy natijalar kommunikativ kompetentlikni shaxs va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni muvofiqlashtiruvchi muhim ijtimoiy-psixologik mexanizm sifatida talqin qilish imkonini beradi. Mazkur kompetentlik shaxsning ijtimoiy muhitga moslashuvi, muloqot jarayonida adekvat xulq-atvor namoyon

etishi hamda o‘zaro ta’sir samaradorligini ta’minlovchi ichki resurs sifatida namoyon bo‘ladi. Bu holat kommunikativ kompetentlikning faqatgina individual xususiyat emas, balki ijtimoiy tizimda shaxs faoliyatini tartibga soluvchi omil ekanini ko‘rsatadi.[2. 76-81b]

Talabalarning kommunikativ kompetentligining rivojlanganligi ularning guruhda o‘zini erkin va ishonch bilan namoyon etishi, ijtimoiy rollarni samarali bajarishi hamda jamoaviy faoliyatda faol ishtirok etishiga zamin yaratadi. Nazariy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, kommunikativ kompetentlik darajasi yuqori bo‘lgan talabalar guruhiiy muhitda konstruktiv muloqot o‘rnatishga, nizoli vaziyatlarni murosaviy hal etishga va o‘zining holatini ijtimoiy maqbul shaklda himoya qilishga qodir bo‘ladilar. Bu esa guruhiiy jipslik va o‘zaro ishonchning shakllanishiga ijobiiy ta’sir ko‘rsatadi.

Ijtimoiy-psixologik tadqiqotlarda kommunikativ kompetentlik ko‘pincha ijtimoiy intellekt, shaxslararo munosabatlar madaniyati hamda liderlik xususiyatlari bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganiladi. Jumladan, kommunikativ kompetentlikning kognitiv komponenti ijtimoiy vaziyatlarni to‘g‘ri idrok etish va baholash imkonini bersa, emotsional komponent empatiya va hissiy sezgirlikni ta’minlaydi, xulq-atvor komponenti esa muloqot jarayonida moslashuvchan va maqsadga yo‘naltirilgan harakatlarni amalga oshirishga xizmat qiladi. Ushbu komponentlarning uyg‘unlashuvi talabalar orasida norasmiy liderlikning shakllanishi va guruhiiy jarayonlarning samarali kechishini ta’minlaydi.[4.14-17]

Shuningdek, kommunikativ kompetentlikning rivojlanganligi talabalarning ijtimoiy moslashuvi va psixologik farovonligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Nazariy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, muloqotda qiyinchiliklarga kam duch keladigan, o‘z his-tuyg‘ularini ochiq va konstruktiv ifoda eta oladigan talabalar stress holatlariga nisbatan barqarorroq bo‘lib, akademik va ijtimoiy faoliyatda yuqori motivatsiyani namoyon etadilar. Bu holat kommunikativ kompetentlikni psixologik himoya va emotsional barqarorlikni ta’minlovchi omil sifatida baholash imkonini beradi.

Bundan tashqari, kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan maqsadli pedagogik va psixologik ta’sirlar talabalarning ijtimoiy faolligi, mas’uliyat hissi va o‘z-o‘zini anglash darajasini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu jihat kommunikativ kompetentlikni oliy ta’lim tizimida shaxsning kasbiy va ijtimoiy tayyorgarligini ta’minlovchi ustuvor kompetensiyalardan biri sifatida qarash zarurligini asoslaydi.[6.54-62b]

Umuman olganda, olib borilgan nazariy tahlil kommunikativ kompetentlikni talabalarning shaxsiy rivojlanishi, guruhiiy o‘zaro ta’sir samaradorligi va ijtimoiy farovonligini ta’minlovchi kompleks ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida talqin qilish mumkinligini ko‘rsatadi. Bu esa mazkur yo‘nalishda empirik tadqiqotlar olib borish va amaliy dasturlar ishlab chiqish uchun mustahkam ilmiy asos yaratadi.

Natijalar.

Olib borilgan nazariy tahlil va ijtimoiy-psixologik yondashuvlar asosida kommunikativ kompetentlikning talabalarda shakllanishi va namoyon bo‘lish xususiyatlari aniqlandi. Tadqiqot natijalari kommunikativ kompetentlikning

shaxsning ijtimoiy faoliyati va guruhiiy o‘zaro ta’sir jarayonlarida muhim determinant sifatida namoyon bo‘lishini tasdiqlaydi. [2. 87–94-b.]

Birinchidan, kommunikativ kompetentlikning “kognitiv komponenti” talabalarning muloqot jarayonini anglash, ijtimoiy vaziyatlarni to‘g‘ri idrok etish hamda suhbatdoshning xatti-harakatlarini adekvat baholash qobiliyatida namoyon bo‘ldi. Nazariy tahlil shuni ko‘rsatdiki, kommunikativ bilimlar va ijtimoiy tajriba darajasi yuqori bo‘lgan talabalar muloqotda kamroq qiyinchiliklarga duch keladi va ijtimoiy vaziyatlarga mos strategiyalarni tanlay oladi. [4.269–272-b.]

Ikkinchidan, kommunikativ kompetentlikning “emotsional komponenti” talabalarning empatiya darajasi, emotsional sezgirligi va muloqot jarayonida hissiy barqarorlikni saqlay olishida ifodalanadi. Olingan natijalar emotsional komponent rivojlangan talabalarning guruhda ijobiy psixologik iqlim yaratishga ko‘proq hissa qo‘shishini hamda nizoli vaziyatlarda konstruktiv munosabat bildirishga moyilligini ko‘rsatdi. [6. 45–49-b.]

Uchinchidan, “xulq-atvoriiy komponent” talabalarning muloqot jarayonida faol tinglash, ochiq muloqotga kirishish, o‘z fikrini aniq va ijtimoiy maqbul tarzda ifodalash qobiliyatlarida namoyon bo‘ldi. Tadqiqot natijalari ushbu komponent rivojlangan talabalar jamoaviy faoliyatda tashabbuskorlik ko‘rsatishini va guruhiiy vazifalarni bajarishda faol ishtirok etishini tasdiqlaydi. [8. 133–138-b.]

Shuningdek, olingan natijalar kommunikativ kompetentlik darajasi bilan “ijtimoiy moslashuv”, “guruhiiy faollik” va “psixologik farovonlik” o‘rtasida ijobiy bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatdi. Kommunikativ kompetentligi yuqori bo‘lgan talabalar ijtimoiy rollarni muvaffaqiyatli bajarish, akademik va norasmiy muloqotda o‘zini erkin namoyon etish hamda guruhiiy munosabatlarda barqaror pozitsiyani egallashga moyil bo‘ldilar.

Natijalar tahlili shuni ko‘rsatdiki, kommunikativ kompetentlik talabalarning “guruhiiy o‘zaro ta’sir samaradorligi”ning muhim prediktori hisoblanadi. Guruh ichida samarali muloqot o‘rnatgan talabalar o‘zaro ishonchni mustahkamlashga, jipslikni oshirishga va jamoaviy maqsadlarga erishishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadilar.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari kommunikativ kompetentlikni talabalarning shaxsiy rivojlanishi, ijtimoiy moslashuvi va guruhiiy faoliyat samaradorligini belgilovchi kompleks ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida baholash mumkinligini ko‘rsatadi. Ushbu natijalar kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan maqsadli psixologik-pedagogik dasturlarni ishlab chiqish uchun ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi. [14. 98–103-b.]

XULOSA

Kommunikativ kompetentlik talabalarda ijtimoiy-psixologik yetuklikni shakllantiruvchi muhim shaxsiy sifat hisoblanadi. U shaxsning ijtimoiy muhit bilan samarali o‘zaro ta’sirini ta’minlab, muloqot jarayonida o‘zini anglash, boshqalarni tushunish va ijtimoiy vaziyatlarga moslashish imkonini beradi. Kommunikativ kompetentlikning kognitiv, emotsional va xulq-atvoriiy komponentlarining uyg‘un rivojlanishi talabalar o‘rtasida samarali muloqotni yo‘lga qo‘yish, ijobiy guruhiiy

munosabatlarni shakllantirish hamda jamoaviy va akademik faoliyatda yuqori natijalarga erishishni ta'minlaydi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kommunikativ kompetentlik darajasi yuqori bo'lgan talabalar ijtimoiy rollarni muvaffaqiyatli bajarish, guruhda yetakchilik salohiyatini namoyon etish hamda nizoli vaziyatlarni konstruktiv tarzda hal qilishga moyil bo'ladilar. Bu esa oliy ta'lim muhitida sog'lom psixologik iqlimni yaratish va talabalarning ijtimoiy moslashuvini kuchaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, kommunikativ kompetentlik talabalarning psixologik farovonligi, o'ziga bo'lgan ishonchi va kasbiy o'zini anglash jarayonini qo'llab-quvvatlovchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Mazkur holatlardan kelib chiqib, oliy ta'lim tizimida kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan psixologik-pedagogik ishlarni tizimli va maqsadga yo'naltirilgan holda tashkil etish zarur. Bu jarayon faqat auditoriya mashg'ulotlari bilan cheklanmasdan, talabalarning ijtimoiy faolligini oshiruvchi turli interaktiv shakllar orqali amalga oshirilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Андреева Г. М. “Социальная психология” : учебник. – М. : Аспект Пресс, 2019. – 448 с.
2. Бодалев А. А. “Личность и общение”. – М. : Педагогика, 2018. – 256 с.
3. Зимняя И. А. Ключевые компетенции как результат современного образования // “Высшее образование сегодня”. – 2020. – № 5. – С. 12–18.
4. Карпов А. В. “Психология коммуникации” : учебное пособие. – М. : Юрайт, 2021. – 312 с.
5. Леонтьев А. А. “Психология общения”. – М. : Смысл, 2019. – 368 с.
6. Myers D. “Social Psychology”. – New York : McGraw-Hill, 2020. – 720 p.
7. Rogers C. “On Becoming a Person”. – Boston : Houghton Mifflin, 2018. – 420 p.
8. Andreeva G. M. “Ijtimoiy psixologiya”. – Moskva : Aspekt Press, 2001. – 384b.
9. Bodalev A. A. “Shaxs va muloqot”. – Moskva : Pedagogika, 1983. – 224 b.
10. Petrovskiy L. A. “Shaxslararo munosabatlar psixologiyasi”. – Moskva : MGU, 1982. – 176 b.
11. Hymes D. On Communicative Competence // “Sociolinguistics”. – Harmondsworth : Penguin, 1972. – P. 269–293.
12. Spitzberg B. H., Cupach W. R. “Interpersonal Communication Competence”. – Beverly Hills : Sage, 1984. – 320 p.
13. Baratov Sh. R. “Psixologiya”. – Toshkent : O'qituvchi, 2010. – 320 b.
14. Sunnatova R. “Ijtimoiy psixologiya asoslari”. – Toshkent : Fan, 2015. – 280 b.